

**UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Fozilova Dilnoza  
ning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "O'zbekistonda bolalar  
musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusida yozgan kurs  
ishiga Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi Kazakov Adilbek  
tomonidan  
T A Q R I Z**

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Fozilova Dilnozaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "O'zbekistonda bolalar musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusida yozgan kurs ishi bilan tanishib chiqdim.

Mazkur kurs ishida XX asrning birinchi yarmida o'zbek bolalar musiqasi san'ati rivoji, musiqa bo'yicha ilk metodik qo'llanmalar, bolalar uchun ilk qo'shiq to'plamlarining yaratilishi, XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek kompozitorlari tomonidan bolalar uchun cholg'u va vokal asarlarining yaratilishi, «Bulbulcha» bolalar xori va bolalar dastasi «Tomosha» ning faoliyati, yosh musiqachilar uchun yangi cholg'u, vokal va katta shakldagi asarlar yozilishi haqida fikrlar yuritilgan.

Talaba Fozilova Dilnoza kurs ishini yozishda mavzuga doir adabiyotlardan aniq va o'rinli foydalangan holda mavzuni to'la yoritgan.

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Fozilova Dilnoza ning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "O'zbekistonda bolalar musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusida yozgan kurs ishidan san'at kollejarida, umumta'lim maktablarining Musiqa darslarida samarali foydalanish mumkin.

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Fozilova Dilnozaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "O'zbekistonda bolalar musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusida yozgan kurs ishi ZioNET saytiga qo'yishga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi



Kazakov A.

UrDU Musiqa ta'limi kafedrası  
katta o'qituvchisi

**UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Fozilova Dilnoza  
ning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "O'zbekistonda bolalar  
musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusida yozgan kurs  
ishiga Urganch shahridagi 6-son maktabi musiqa o'qituvchisi  
Ismoilova Xurshida tomonidan  
T A Q R I Z**

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Fozilova Dilnozaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "O'zbekistonda bolalar musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusida yozgan kurs ishi bilan tanishib chiqdim.

Mazkur kurs ishida XX asrning birinchi yarmida o'zbek bolalar musiqasi san'ati rivoji, musiqa bo'yicha ilk metodik qo'llanmalar, bolalar uchun ilk qo'shiq to'plamlarining yaratilishi, XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek kompozitorlari tomonidan bolalar uchun cholg'u va vokal asarlarining yaratilishi, «Bulbulcha» bolalar xori va bolalar dastasi «Tomosha» ning faoliyati, yosh musiqachilar uchun yangi cholg'u, vokal va katta shakldagi asarlar yozilishi haqida fikrlar yuritilgan.

Talaba Fozilova Dilnoza kurs ishini yozishda mavzuga doir adabiyotlardan aniq va o'rinli foydalangan holda mavzuni to'la yoritgan.

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Fozilova Dilnoza ning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "O'zbekistonda bolalar musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusida yozgan kurs ishidan san'at kollejlarda, umumta'lim maktablarining Musiqa darslarida samarali foydalanish mumkin.

UrDU Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Fozilova Dilnozaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "O'zbekistonda bolalar musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari" mavzusida yozgan kurs ishi ZioNET saytiga qo'yishga loyiq deb hisoblayman.



**Ismoilova X.  
Urganch shahridagi 6-son maktabi  
musiqa o'qituvchisi**

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA VA SAN`AT FAKULTETI  
MUSIQA TA`LIMI YO`NALISHI

# **KURS ISHI**

**MAVZU: O`zbekistonda bolalar musiqa san`atining rivojlanish  
bosqichlari**

Topshirdi:

Fozilova Dilnoza

Qabul qildi:

Nurmatova M.A.

Urganch-2015

## REJA:

### Kirish

1. XX asrning birinchi yarmida o`zbek bolalar musiqasi san'ati rivoji
2. Musiqa bo`yicha ilk metodik qo`llanmalar, bolalar uchun ilk qo`shiq to`plamlarining yaratilishi
3. XX asrning ikkinchi yarmida o`zbek kompozitorlari tomonidan bolalar uchun cholg`u va vokal asarlarining yaratilishi
4. «Bulbulcha» bolalar xori va bolalar dastasi «Tomosha» ning faoliyati
5. Yosh musiqachilar uchun yangi cholg`u, vokal va katta shakldagi asarlar yozilishi

### Xulosa

### Foydalanilgan adabiyotlar

## KIRISH

Ushbu kurs ishning asosiy maqsadi, o'tmishda va hozirgi davrda O'zbekistonda bolalar musiqa san'atining rivojlanish bosqichlarini o'rganishdir.

Bolalar ijro qilishi yoki tinglashi uchun mo'ljallangan musiqa - bolalar musiqasi deyiladi. Hozirgi davrda bolalar uchun na faqat qo'shiqlar, xorlar yoki cholg'u kuylarigina mavjud bo'lib qolmasdan, balki bolalar operalari, balet, operetta, kantatalar, yana shuningdek bolalar auditoriyasi uchun maxsus yaratilgan simfonik musiqalar ham mavjuddir.

Bolalar musiqasining eng yaxshi namunalari o'zining badiiyligi, aniqligi, shaklning oddiyligi, texnik tomondan ijro uchun qulayligi, lo'ndaligi bilan ajralib, bolalarning musiqani idrok qilish imkoniyatlarini hisobga oladi

Vaqt o'tishi bilan bolalar ijrosi uchun mo'ljallangan musiqa, kompozitorlar ijodiyotining alohida sohasiga aylandi.

O'zbek bolalar folklori o'tgan asrning 20 yillarigacha bolalarni badiiy - estetik tomondan tarbiyalashning birdan – bir vositasi edi.

Bolalar uchun yozadigan kompozitorlar ijodi bevosita maxsus va umumiy musiqa ta'limi bilan bog'liqdir. Hozirda bolalar musiqasi katta jamoalar - bolalar xori, orkestrlari, opera studiyalari uchun yaratilmoqda.

Kurs ishning birinchi, ikkinchi mavzusida kurs ishi mavzusi nazariy holda bayon etilib, unda O'zbekistonda XX asrning birinchi yarmida o'zbek bolalar musiqa san'ati rivoji, musiqa bo'yicha ilk metodik qo'llanmalar, bolalar uchun ilk qo'shiq to'plamlarining yaratilishi haqida suz yuritamiz.

Uchinchi, to'rtinchi, beshinchi mavzusida tadqiqot olib borilgan ob'ekt misolida ilmiy ish mavzusi taxliliy bayon etiladi. Shuning uchun uchinchi, to'rtinchi, beshinchi mavzuning diqqat markazida XX asrning ikkinchi yarmida G'. Qodirov, D. Zokirov, B. Gienko, Sh. Ramazonov, F. Nazarov, A. Muhamedov kabi kompozitorlar ijodida bolalar uchun cholg'u va vokal asarlarining yaratilishi, «Bulbulcha» bolalar xori va bolalar dastasi «Tomosha» ning faoliyati, 90 - 2000 yillarda yosh musiqachilar uchun yangi cholg'u, vokal va katta shakldagi asarlar yozilishi kabi mavzular turadi.

O`zbek bolalar musiqa sa`nati rivojidagi katta o`zgarishlarga qaramay, kompozitorlar oldida katta vazifalar turibdi.

Kurs ish xulosasi O`zbekiston bolalar musiqa san`ati rivoji masalalarga yakun yasaydi.

### ***1. XX asrning birinchi yarmida o`zbek bolalar musiqasi san`ati rivoji***

Bolalar folklori o`tgan asrning 20 yillarigacha bolalarni badiiy - etetik tomondan tarbiyalashning birdan – bir vositasi edi. O`zbek bolalar folklori kompozitorlarimiz uchun bitmas tuganmas ijod manbaidir, Uzbek bolalar folklorining ayrim namunalaridan hozirgi kunda ham foydalanilmoqda. misol uchun kompozitor Sh. Yormatov ko`p ovozli bolalar xori uchun moslashtirgan «Boychechak» qo`shig`ini ko`rsatish mumkin.

Sho`rolar davrida yosh O`zbekiston boshiga tushgan katta qiyinchiliklarga qaramasdan sobiq sovet hukumati tomonidan madaniyat, san`at va fan umumxalq ahamiyatiga ega degan bir qator qarorlar qabul qilindi. Bular haqqoniy ravishda ommaviy va professional musiqa tarbiyasiga tegishli edi. «San`at xalqqa» degan shior oldga tashlandi (jumladan, ommaviy musiqa tarbiya professional musiqa tarbiyasi asosini tashkil qilishi zarur edi).<sup>1</sup>

XX asrning 20 – 50 yillari o`zbek bolalar musiqa san`atining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Musiqa tashviqoti va ommaviy musiqa tarbiyasi masalalari birinchi darajaga chiqarildi. Respublikada bolalar musiqasi va xor badiiy havaskorligi asosan 20 - yillardan boshlab rivojlana bordi. Xususan, shu yillarda o`quvchi va yoshlar o`rtasida (maktablar va o`quv yurtlarida) musiqa havaskorligi keng tarqaldi. Musiqa, xor va raqs to`garaklari tuzila boshlandi.

30 yillarga kelib o`zbek musiqa san`ati yanada jadal rivojlandi. Bu davrda respublikada 50 ta teatr, faoliyat ko`rsatar edi. 148 ta professional klublar (shulardan 40 tasi Toshkent shahrida) ish olib bordi.

---

<sup>1</sup>Yuldasheva S. Istoriya razvitiya detskoy muziki v Uzbekistane. T.,1987

1934 yilda Toshkentda Oliy musiqa maktabi ochildi va keyinchalik, ya'ni 1936 yilda u Toshkent davlat konservatoriyasiga aylantirildi.

1939 yilda Toshkent konservatoriyasi qoshida iqtidorli bolalar uchun 10 yillik musiqa maktabi ochildi (keyinchalik unga Uspenskiy nomi berildi).

O'zbekistonda musiqa tarbiyasini oyoqqa qo'yish dastlab o'rta bo'g'im (texnikum, bilim yurtlari) oliy ta'lim (konservatoriya), faqat undan keyingina (boshlang'ich bo'g'im) musiqa maktablari tarmoqlarga o'tildi. Ulardan birinchisi Glier nomidagi bolalar maktab internati edi. 1936 yil Toshkentda bolalar pioner saroyi qoshida etti yillik musiqa maktabi ochildi, Andijon, Farg'ona, Buxaro, Samarqand, Qo'qonda musiqa maktablari paydo bo'ldi.

O'zbekiston umumta'lim maktablaridagi musiqa tarbiyasi masalalari ham takomillashtirishni talab qilar edi. Xalq ta'limi komissariati (Narkompros) ning 1937 yilda chiqargan «Umumta'lim maktablaridagi badiiy tarbiya to'g'risidagi qarori» da maktablarda bolalar badiiy tarbiyasi etarli darajada emasligi ko'rsatiladi va shu munosabat bilan:

1.Maktablarda musiqa, drama, rasm va boshqa badiiy to'garaklarni keng tashkil qilish. Ular Narkompros tomonidan 1935/36 o'quv yilida tarqatgan dastur bo'yicha maktablar kun tartibini buzmaganda ishlashi;

2.Shahar va rayonlarda bolalar muassasalarini kattalarni jalb qilgan holda badiiy havaskorlikning barcha turlari bilan ta'minlash,

3.Badiiy havaskorlikning barcha turlari bo'yicha bolalar ko'riklarini tashkil qilish;

4.Yirik mutaxassislarni jalb qilgan holda klub, park, bolalar bog'chalarida o'quvchilar bilan badiiy ishlarni tashkil qilish;

5.Alohida iqtidorli bolalarni aniqlash va ular bilan alohida mashg'ulotlar olib borish;

6.O'quvchilarning badiiy tarbiyasi bo'yicha barcha masalalar bilan Pionerlar saroyi bolalar badiiy tarbiyasi bo'limiga murojaat qilinsin» - degan buyruq chiqarildi<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> Yuldasheva S. Istoriya razvitiya detskoy muziki v Uzbekistane. T.,1987

Maorif ministrligi tomonidan respublikadagi barcha pedagogika bilim yurtlarida ashula va musiqa darslarini o`qitish o`quv programmasiga kiritildi. Toshkent Davlat konservatoriyasi musiqa bo`yicha ishlovchi xodimlar uchun musiqa pedagogika kurslarini tashkil qildi.

50 - yillardan boshlab maktab xor - musiqa havaskorligi ham jadal qadamlar bilan rivojlana bordi. Masalan, 1955 yilda o`tgan ko`rikda Farg`ona viloyat bolalar uylari xor jamoalari yuksak ijrochilik mahoratini namoyish etdilar.

50-yillar oxiriga kelib, respublikada oltita (Toshkent, Buxoro, Samarqand, Namangan, Farg`ona, Nukus shaharlarida) musiqa bilim yurti, bitta (Toshkentda) madaniy - oqartuv texnikumi va yuzdan ortiq etti yillik musiqa maktablari mavjud edi.

Maorif ministrligi tomonidan respublikadagi barcha pedagogika bilim yurtlarida ashula va musiqa darslarini o`qitish o`quv programmasiga kiritildi. Toshkent Davlat konservatoriyasi musiqa bo`yicha ishlovchi xodimlar uchun musiqa pedagogika kurslari tashkil qildi. Konservatoriyaning xor dirijorligi bo`limi studentlari ham rayon va viloyatlarda havaskorlik xorlari tuzish kabi umumiy ishga aktiv qatnashdilar. Shu yillarda konservatoriyaning tugatgan yoshlarning bir qismi respublika musiqa bilim, yurtlariga, musiqa maktablariga hamda umumta`lim maktablariga xor dirijorligi ixtisosi bo`yicha o`qituvchi qilib jo`natildi.

Bolalar musiqasi rivojlanishida ketma - ket 1953, 1954, 1955 yillarda o`tgan respublika Ashula bayramlari muhim rol o`ynadi. 50 -yillardan boshlab maktab xor - musiqa havaskorligi ham jadal qadamlar bilan rivojlana bordi. 1981 yilda o`tkazilgan ko`rik - konkurslarda bolalar xor jamoalaridan, Samarqand va Bekobod shahar bolalar saroyi o`g`il bolalar xorlari, Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 9 - o`rta maktab xori, Nukus shahar o`rta maktab xori, Toshkent viloyat G`azalkent shahar Arkadiy Gaydar nomli xor kollektivi, Navoiy shahar parrandachilik fabrikasi qoshidagi bolalar xori, Toshkent shahar 9, 99, 243, 210 - o`rta maktab xor jamoalari konkurs laureatlari unvoniga ega bo`ldilar.



Respublikada bolalar xor ijrochiligining rivojlanishida Toshkent Davlat konservatoriyasi dotsentlari E. M. Kenzer, S. A. Valenkov, A. V. Vasileva, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist Shermet Yormatovlarning xizmatlari juda katta. Bugungi kunda Toshkent shahar 99-o`rta maktab «Boychechak» bolalar xori va Toshkent shahar 9-maktab bolalar xori butun respublikaga tanish. Har ikkala o`zbek bolalar xorlari repertuarida jo`rsiz uslubda yozilgan asarlar ko`p. «Boychechak» o`zbek bolalari xori Moskva, Artek va boshqa shaharlarida bo`lib, kontsertlar berishgan. 9-o`rta maktab o`zbek xori esa 1982 yilda Bolgariyada bo`lib, Sofiya, Xaskovo, Plovdiv va Dmitrovgrad shaharlarida kontsertlar berishgan.<sup>3</sup>

Bu xorlar ko`p yillar davomida uzluksiz ishlab kelmoqda. Bolalar xor ijrochiligi hozirgi vaqtda jadal sur`atlar bilan rivojlanmoqda. Bu esa kelgusida kattalar xor havaskorligining rivojlanishi omillaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonda qisqa davr ichida bolalar musiqa san`ati barpo etildi. Respublikada bolalar musikasi ijodiyoti borasida ma`lum yutuqqa erishildi, tajriba orttirildi. Bolalar musiqasi sohasida kiritilgan yutuqlar, kelgusida bu borada yanada yuqori bosqichlarga ko`tarish imkonini beradi.

## ***2. Musiqa bo`yicha ilk metodik qo`llanmalar, bolalar uchun ilk qo`shiq to`plamlarining yaratilishi***

1929 yilda Narkompros tomonidan respublikaning ta`lim muassalari oldiga xalq musiqasi kuylari asosida zamonaviy musiqiy repertuarni yaratish masalasi qo`yildi, ya`ni o`quv dasturlarini mahalliy musiqa materialiga o`tkazish masalasi o`rtaga tashlandi, bu esa o`zbek musiqa madaniyati rivojini yanada olidinga surishga yordam beradi deb hisoblandi.

1931 yili «Programma muzikalnogo vospitaniya dlya uchastixsya pedagogicheskix texnikumov», keyinroq «Metodicheskoe rukovodstvo po notnoy gramote dlya uchiteley srednix shkol», «30 pesen tashkentskix shkolnikov»(1936),

---

<sup>3</sup> Baxritdinova N. A. O`zbekiston bolalar xor madaniyati. Toshkent 2002

«Solfedjio» darsligi, bog`cha bolalari va maktab o`quvchilari uchun «Biz kuylaymiz» (1939) bolalar qo`shiqlari to`plami, 1935 yilda pioner tashkilotlari va o`zbek maktablari uchun «Zoashulla» to`plami va V. Uspenskiyning professional musiqa muassasalari uchun «10 ta fortepiano p`esalari »nashr qilindi.

E. E. Romanovskayaning fortepiano jo`rligida ikki ovozli bolalar yoki ayollar xori uchun qayta ishlagan qo`shiqlari ancha ahamiyatga ega edi. To`plamga kirgan «Paxta teradi» ikki ovozli qo`shig`i bolalar xor janrining dastlabki namunasi hisoblandi.<sup>4</sup>

Musiqashunos E. E. Romanovskaya musiqiy pedagogik adabiyotlar yaratilishi bo`yicha (1936 yil, 29 oktabr) o`tkazilgan ilmiy –pedagogik konferentsiyada chiqish qilib - «...Biz ikkita masalani hal qilishimiz zarur – bulardan birinchisi, o`zbek musiqasi asosida musiqa darsliklarini yaratish, ikkinchisi, musiqa amaliyotiga rus va g`arbiy evropa musiqasini tadbiq qilish, busiz esa o`zbek musiqa madaniyati o`z rivojlanishida to`xtab qolishi» haqida gapirgan edi.<sup>5</sup>

O`zbekistonda musiqa ta`limini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarning musiqiy - nazariy va texnik ko`nikma va malakalarini samarali rivojlanishiga yordam beruvchi o`quv metodik qo`llanmalar, shu jumladan musiqiy - pedagogik repertuarni yaratish masalasi ham ko`ndalang turar edi. Bu masalani V. A. Uspenskiyning o`zbek xalq ommaviy qo`shiqlari asosida yaratilgan fortepiano p`esalari to`plami hal qilib berdi.

### ***3. XX asrning ikkinchi yarmida o`zbek kompozitorlari tomonidan bolalar uchun cholg`u va vokal asarlarining yaratilishi***

G`ofur Qodirov (1917-1985). Toshkent shahrida tavallud topgan. 1933 yili O`rta Osiyo san`at rabfakiga o`qishga kirib uni 1936 yili bitirgan. Yillar davomida G`. Qodirov pedagoglik va jamoatchilik faoliyatlarini birgalikda olib borib, turli shakl va janrlarda ijod qildi. Forteplano uchun «Rondo», «Raqs», «Syuita», «Sonata», «Prelyudiya va fuga» kabi p`esalarni yaratdi.

---

<sup>4</sup> Yuldasheva S. Istoriya razvitiya detskoy muziki v Uzbekistane. T.,1987

<sup>5</sup> Yuldasheva S. Istoriya razvitiya detskoy muziki v Uzbekistane. T.,1987

G`ofur Qodirov ko`p qirrali ijodkor bo`lsa ham baribir u ko`piroq kichkintoy bolalar uchun ijod qilgan. G`. Qodirov qo`shiqlarining aksariyati, jumladan bolalar uchun yaratgan qo`shiqlari quyidagi nota to`plamlarida nashr qilingan: «Qo`riq er qo`shiqlari», «Pillachi qiz», «Quyosh va biz», «Baxt qo`shig`i», «O`ynab ber». Bulardan tashqari «Fortepiano uchun p`esalar» va «O`zbek raqslari» to`plamlari ham nashrdan chiqqan.

G`. Qodirov asosan bolalar uchun ko`p qo`shiq va yirik hajmdagi vokal - cholg`u asarlari yaratdi. Shuning uchun unga «Bolalarning sevimli kompozitori» deb nom berishgan. Uning maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib, yuqori sinf o`quvchilarigacha mo`ljallagan asarlari janr va mavzu jihatidan rang – barangdir.

Kompozitor turli cholg`u ansambl, orkestr, yakkaxon, ansaml va xor uchun yaratgan asarlari orasida, yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Maktabjon - oftobjon» (T. Ilhomov so`zi), 4 qismli vokal - simfonik syuita, «Biz yosh o`quvchilar» (T. Ilhomov so`zi) 4 qismli kantata, «Biz kosmosning zabtkorimiz» (H. Muhammad so`zi) 4 qismli kantata, «Oq oltin», «Biz istiqbol egasimiz» (P. Mo`min so`zi) 5 qismli vokal – simonik syuitasi, Bolalar xori uchun «Laylak», «Chegarachi», «Alisher ismli bolalrga» (B. Isroilov so`zi), «Bobolar bog`bon», «Ota - onalarga», «Archa qo`shig`i» (E. Raximov so`zlari), «Dangasalik kasallik» (P. Mo`min so`zi), yakka ijrochilar uchun qo`shiqlar qator nota to`plamlariga kiritilgan.<sup>6</sup> Uning «Archa qo`shig`i», «Quyosh va biz» kabi qo`shiqlari maktab va bog`cha bolalari tomonidan shu kungacha aytib kelinadi. Undan tashqari G`ofur Qodirov simfonik asarlar, vokal va cholg`u syuitalari, estrada qo`shiqlarini yaratgan. Ijod qilish bilan bir vaqtda Toshkent Davlat konservatoriyasida yosh sozanda va xonandalarga ustozlik qilgan.

Doni Zokirov (1914-1985). D. Zokirov ijodida bolalar uchun yaratilgan qo`shiqlar alohida o`rinda turadi. U bolalar uchun P. Mo`min she`rlariga «Sayohat - rohat» «Kungaboqar», «Oppoq qantim», «Sirdaryo - Sirdaryo», «Kapalak va handalak», «Bog`da pishdi uzumlar», «Do`lona», U. Rahmonov so`ziga, «Bahor valsi», R. Bobojon so`ziga «Olma», Yu. Hamdam so`ziga «Badan tarbiya»,

---

<sup>6</sup> Jabborov A. O`zbekiston bastakor va musiqshunoslari. Toshkent. 2004

Yo. Mirzo so`ziga «Maktabim», Yu. Hamidiy so`ziga «Baxtiyor qo`shig`i», M. Haydar so`ziga «Yangi yil qo`shig`i» va «Beqiyos diyor» kabi qo`shiqlarni bastalab, o`zbek bolalar qo`shiqchiligi ijodiga o`zining samarali hissasini qo`shdi.

Gienko Boris Fyodorovich (1917 - 2000). Y. Oxunboboev nomidagi bolalar teatri uchun «Gerdaygan quyosh» (S.Mixalkov p`esasi), «Ikkita klen» (E. Shvarts p`esasi), «Chetda», «Pavlik Morozov», «Sirli sandiq» (Tolipov va Ahmedovlar p`esasi) va qo`g`irchoq teatrida qo`yilgan «Vasilisa Prekrasnaya» (Pushkin asari) spektakllariga musiqa bastaladi.

Kompozitor Sh. Ramazonov (1910 - 2000). Uning ovoz, xor va bolalar uchun, shuningdek, «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi uchun qator quvnoq, jozibali, «Paxtaoy» bolalar estrada ansambli uchun «A`lochi» (H. Muhammadali so`zi), «Bugun bayram» (B. Isroilov so`zi), «Qo`zichog`im», «Bo`shashmayman», «Jibilajibon» (P. Mo`min so`zlari) va boshqa qo`shiqlari ular ijrosida keng ommaga tanildi.

F. Nazarov (1919 - 1080). Bolalar musiqasi sohasida kompozitor F. Nazarovning ijodiy faoliyati alohida o`rinda turadi Uning yoshlar uchun turli janrlarda yaratgan kuy va qo`shiqlari bolalar bog`chalarida, o`rta ta`lim va musiqa maktablarida keng qo`llanib kelinmoqda.

1951 yili konservatoriyani dirijorlik sinfi bo`yicha bitirgan kompozitorning 1964 yili Moskva konservatoriyasi qoshidagi maxsus musiqa maktabining 7 - sinfida o`qiyotgan qizi Gulnora Nazarova uchun atab fortepiano va simfonik orkestr uchun yozgan kontserti Gulnoraning ilk ijrosida mashhur bo`lib ketdi. 1973 yili kontsert partiturasini Moskva nashriyotida chop etilishi bilan ko`p musiqa maktablarining o`quvchilari tomonidan ijro etila boshlandi. F. Nazarovning 1948 yilda skripka va fortepiano uchun bastalagan «Qo`shiq va raqs» kuyi (g`ijjak va fortepiano uchun variatsiyalari ham bor) musiqa maktablari, bilim yurtlari va konservatoriya talabalarining o`quv dasturi sifatida doim ijro etilmoqda. Bular qatorida 60 -70 yillarda yozilgan skripka va fortepiano uchun poema, Hamzaning «Sayyora» ashulasi asosida bastalagan p`esasi, fortepiano uchun «Noktyurn», «Marsh», «Fuga», «Raqs», «Vals» kabi p`esalari, skripka va fortepiano uchun «Kontsertino», g`ijjak va fortepiano uchun «Vals», «Rubob va fortepiano uchun skertso», dutor va fortepiano

uchun «Kontsert p'esasi», fortepiano uchun 10 ta p'esa, violonchel va fortepiano uchun «Kontsertino», rubob uchun «Amudaryo» vals - kontserti, bolalar simfonik orkestri uchun 4 qismli syuita kabilar yosh ijrochilar kontsert dasturlarida saqlanib kelmoqda.

Kompozitor Abdurahim Muhamedov (1923 - 1980). A. Muhamedov bolalar uchun jozibali, original qo'shiqlar yaratdi. O'zbekiston radiosining bolalar uchun eshittirishlari yillar davomida uning «Yulduzcha» qo'shig'i bilan boshlanib keldi. Bolalar hayotiga singib ketgan «Archa qo'shig'i» siz yangi yil bayrami o'tmagan bo'lsa kerak. Yoki kompozitorning «Salimjon nimjon», «Qo'g'irchog'im, alla», «Kapalak», «Alla», «Alla qo'zichog'im», «Tantiq qiz», «Saboq ol» kabi qo'shiqlari jazzi ijrochi va tinglovchilar qalbidan joy olgan.

Azimov Xolmirza. (1925 - 1992) Xolmiza Azimovning ijodiy faoliyati sevimli fortepiano cholg'usi uchun kuylar yaratish bilan bog'liq bo'ldi. Uning ijodida oddiy kuylar, o'zbek va boshqa xalqlar kuylarini fortepiano uchun qayta ishlagan asarlardan tortib, to murakkab shakllarda yozilgan asarlar mavjud. Kompozitor ko'p yillik o'qituvchilik tajribasidan kelib chiqqan holda, musiqa maktablari uchun pedagogik repertuarni milliy asarlar bilan boyitish maqsadida quyidagi musiqa namunalari va to'plamlarni nashr ettirdi: «Xrestomatiya po obshemu kursu fortepiano» («O'qituvchi». T, 1965 g.) «Fortepiannie p'esi kompozitorov Sredney Azii i Kazaxstana» (Alma – ata. 1982 g); «Fortepiano darsligi» («O'qituvchi», T. 1971 y); «Ballada, poema dlya fortepiano» (G. Gulyam», T.1978 g); «Xrestomatiya po kursu fortepiano» («O'qituvchi», T. 1979 g); «Rapsodiya dlya fortepiano» (G. Gulyam», T. 1980 g); «Sbornik detskix p'es kompozitorov Uzbekistana» («Sov.komp.», Mosk. 1985g), Tri p'esi iz sikla «Nevolnitsa» dlya fortepiano (G. Gulyam», T. 1987 g).<sup>7</sup>

Respublikamiz musiqa o'quv yurtlarida 20 asrning 70 yillariga qadar o'zbek musiqasi asosida fortepiano uchun maxsus qo'llanma - darslik yo'q edi. 1971 yili o'zbek musiqasi asosida o'zi yaratgan «Fortepiano darsligi» ni chop ettirdi. Ustoz bu darslikni umrining oxirigacha to'ldirib bordi, qayta ishladi va nashrga tayyorladi. U

---

<sup>7</sup> Jabborov A. O'zbekiston bastakor va musiqshunoslari. Toshkent. 2004

ijrochi va kompozitor sifatida milliy ruh bilan sugʻorilgan ohangdor musiqiy asarlar yaratishga intildi. Natijada quyidagi musiqiy asarlar vujudga keldi: «Fortepiano uchun 24 p'esa», «Fortepiano uchun sonatina», «Fortepiano p'esalari to'plami», Fortepiano uchun poema, ballada, rapsodiya, 4 qismli p'esalar turkumi, noktyurn, 12 p'esadan iborat o'zbek kuylari asosida bastalangan polifonik to'plam, barkarola, 3 ta prelyudiya, 2 ta fortepiano uchun 4 qo'lda ijro etiladigan 12 p'esalar shular jumlasidandir.

Kompozitor Sobir Boboev (1920 - 2004). Bolalar uchun 1969 yili o'zbek xalq ertagi asosida «Yoriltosh» (Sh. Sa'dulla librettosi) operasini yaratdi.

#### ***4. «Bulbulcha» bolalar xori va bolalar dastasi «Tomosha» ning faoliyati***

«Bulbulcha» bolalar xorining tashkil topishi. O'zbekiston bolalar xor madaniyati rivojiga, bu sohada erishgan yutuqlarga ajoyib musiqachi, kompozitor, bolalar xor san'ati faol targ'ibotchisi, O'zbekiston xalq artisti, «Sog'lom avlod uchun» ordeni sovrindori, O'zbekiston teleradiokompaniyasining «Bulbulcha» bolalar xori badiiy rahbari va bosh dirijeri Sh. Yormatovning qo'shgan hissasi nihoyatda salmoqlidir. Respublika bolalar xor san'atidagi ko'pgina ijodiy tashabbuslar uning nomi bilan bog'liqdir. U doimo musiqa madaniyati rivojlanishidagi yangi yo'llarini izlab topmoqda. Konservatoriyada o'qish davrida Sh. Yormatov Respublika bolalar saroyi qoshida bolalar xorini tashkil etdi (bu jamoa o'rta maktab asosida yuzaga keldi). Konservatoriyaning tugatgandan so'ng Sh. Yormatov o'sha maktabning xor to'garagi rahbari va musiqa o'qituvchisi sifatida o'z faoliyatini davom ettirdi.

Sh. Yormatovning tolmas - tashkilotchilik faoliyati, undagi ishtiq, bolalarga bo'lgan muhabbat, yuqori darajadagi kasbiy mahorat qisqa muddat ichida unga xorning ijrochilik saviyasini yuqori bosqichiga olib chiqish imkonini berdi. O'zining yo'lini topib olgan ushbu xor jamoasi endi xor musiqasi bilan barcha musiqa shinavandalari orasida shuhrat topib, turli respublika va chet el ko'rik - tanlovlarida ishtirokchi va sovrindor bo'ldi, shuningdek, davlatimizda o'tkaziladigan barcha bayram tadbirlarida faol ishtirok etmoqda.

Sh. Yormatovning ijodiy sinchkovligi, izlanuvchanligi, kompozitorning musiqa tarbiyasiga oid yangi shakllariga moyilligi, maktabda musiqali xor sinflarining tashkil qilishga imkon berdi.

O`zbek kompozitorlarining bolalar qo`shiq va xor musiqasi sohasidagi faol ijodi, turli ko`rik, tanlov, festival, qo`shiq bayramlarining o`tkazilishi bolalar musiqa san`ati rivojida katta turtki bhldi. 1970 yilda O`zbekiston Davlat teleradio qo`mitasi qoshida Sh. Yormatov boshchiligida bolalar xor jamoasi tashkil qilindi. Bugungi kunga kelib, bu jamoa - respublikamizda eng mashur O`zbekiston teleradiokompaniyasining «Bulbulcha» bolalar xoriga aylandi. Bolalar xorining jarangdor, zavqu - shavqqa to`la san`ati barcha xor musiqasi muxlislariga ma`lumdir. Repertuardagi asarlarning ijrosi yuksak mahorat, musiqaviyligi, jonliligi, samimiyligi bilan ajralib turadi.

«Bulbulcha» bolalar xor jamoasi respublikamiz madaniy hayotida katta rol o`ynab kelmoqda. Bugungi kunga kelib, bu jamoa - respublikamizda eng mashur O`zbekiston teleradiokompaniyasining «Bulbulcha» bolalar xoriga aylandi. Bolalar xorining jarangdor, zavqu - shavqqa to`la san`ati barcha xor musiqasi muxlislariga ma`lumdir. Repertuardagi asarlarning ijrosi yuksak mahorat, musiqaviyligi, jonliligi, samimiyligi bilan ajralib turadi.

Qo`shiqlar mavzulari bolalarga tushinarli va yaqin bo`lib, ularning mazmuni va ma`nodorligi, musiqasi esa ohangdorligi va ta`sirchanligi bilan ajralib turadi. Jamoa repertuaridan o`zbek kompozitorlari asarlari bilan bir qatorda chet el kompozitorlarining mumtoz xor asarlari ham o`rin olgan bo`lib, ular bolalarning jahon musiqa madaniyatiga bo`lgan hurmatini oshirmoqda.

Sh. Yormatov xor jamoasining repertuariga katta ahamiyat beradi va o`zing asosiy vazifasi deb bolalar qo`shiqlarining targ`ibotini tushunadi.

Sh. Yormatov o`ttiz yildan ortiq davr ichida xor repertuarini boyitishda kompozitor va shoirlar bilan hamkorlik qildi. Buning natijasida turli mavzularda ko`plab qo`shiq, syuita, kantata, jo`rsiz qo`shiqlar yaratildi. O`zi ham kompozitor sifatida jozibali, original qo`shiqlar yaratdi, o`zbek xalq qo`shiqlarini xor uchun qayta ishladi. Ayniqsa, «Maysa», «Ikki qo`ymang o`qituvchim», «Oymomojon rom

bo`ldi», «Oy Vatanim», «G`ildiragim», «Islom bobom» «Dadamlarga o`xshasam», «Sumalak», «Boychechak», «Navro`zim», «Gul lola», o`smirlar uchun «Bu yurtning yoshlari», «Yoshligim», «O`zbekiston tong yurtim», «Bu go`zal o`lka» kabi qo`shiqlari va besh qismli «Assalom, hayot» kantatasi diqqatga sazovordir. Bugungi kunda uning badiiy rahbarligidagi «Bulbulcha» xori tarkibida «Xalq cholg`ular ansambli», «Kichik yosh» va «Katta yosh» raqs ansambllari, «Diyor» va «Hilol» estrada ansambllari faoliyat ko`rsatmoqdalar.<sup>8</sup>

Qo`shiqlar mavzulari bolalarga tushinarli va yaqin bo`lib, ularning mazmuni va ma`nodorligi, musiqasi esa ohangdorligi va ta`sirchanligi bilan ajralib turadi. Jamoa repertuaridan o`zbek kompozitorlari asarlari bilan bir qatorda chet el kompozitorlarining mumtoz xor asarlari ham o`rin olgan bo`lib, ular bolalarning jahon musiqa madaniyatiga bo`lgan hurmatini oshirmoqda.

XX asr va hozirgi davrda kompozitorlarning keksa va yosh avlod vakillari bolalar uchun qo`shiq va boshqa janrlarda samarali ijod qilib kelmoqdalar.

Bugungi kunda uning badiiy rahbarligidagi «Bulbulcha» xori tarkibida «Xalq cholg`ular ansambli», «Kichik yosh» va «Katta yosh» raqs ansambllari, «Diyor» va «Hilol» estrada ansambllari faoliyat ko`rsatmoqdalar.<sup>9</sup>

«Tomosha» bolalar dastasi faoliyati. Yosh avlodga musiqiy tarbiya berishning yangi shakllarini 1988 yilda O`zbekiston respublikasi bolalar jamg`armasi qoshida tashkil qilingan «Tomosha» bolalar teatr studiyasi amalga oshirmoqda. Uning rahbari – bolalar musiqa ta`limi fidokori, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi N. Qurbonova puxta kasbiy tayyorgarlik va katta tashkiliy – pedagogik tajribaga egadir. Uning pedagogik istedodi teatr - studiyaga rahbarlik qilish jarayonida to`la namoyon bo`ldi.

To`laqoli kasbiy ma`lumotga ega bo`lishiga qaramasdan, N. Qurbonova xor ijrochiligida muhim bo`lgan mumtoz usullar («akademizm») ga suyanmaydi, xor san`ati yangi imkoniyatlarini sabr bilan izlab topmoqda va bu jarayonda ilhom bilan badiha - o`yin, badiiy ijro usullaridan keng foydalanmoqda.

---

<sup>8</sup> Baxritdinova N. A. O`zbekiston bolalar xor madaniyati. Toshkent 2002

<sup>9</sup> Baxritdinova N. A. O`zbekiston bolalar xor madaniyati. Toshkent 2002



N. Qurbonova badiiy jamoaga S. Rustamova, M. Hasanova kabi bolalar bilan berilib ishlaydigan, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni jalb etdi. Yosh jamoani oyoqqa turib olishiga «Yalla» vokal – estrada ansambli va uning badiiy rahbari O`zbekiston xalq artisti F. Zokirov hamda xalq qo`shiqlarini qayta ishlab bergan, ansamblning musiqa rahbari R. Ilyosov katta yordam berdilar.<sup>10</sup>

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, yorqin ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan N. Qurbonovanning o`z ham «Tomosha» uchun juda ko`p qo`shiqlarni, ko`pgina nomer va spektakllarni yaratdi. N. Qurbonova repertuarga katta e`tibor berib, folklor asosida bolalarga bilim berishni asosiy vazifa qilib qo`yadi. Uning o`zi bolalar jamoasi uchun mos bo`lgan musiqa asarlarini yaratmoqda.

«Shara - bara», «Chuchvara qaynaydi - yo», «Bobojon», «Maymuncha», «Non», «Yulduz» kabi qiziqarli, sahna o`yini xarakterida bo`lgan qo`shiqlar bolalar ruhiyatiga mos bo`lib ularning sevimli qo`shiqlariga aylangan.

Teatr studiyasining repertuaridan «Sharq bozori», «Sharq muchali», «Dahshatli mesh polvon» kabi sahna asarlari o`rin olgan. Xalq maishiy mavzularida, kulgili mazmundagi bu asarlar bolalarda o`yin faoliyatini, akterlik layoqatlarini, ijodiy tassavurni, dunyoni xursandlik bilan tasavvur etish kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

### ***5. Yosh musiqachilar uchun yangi cholg`u, vokal va katta shakldagi asarlar yozilishi***

Hozirgi davrda respublikamizdagi ijodiy kuchlarning yuksalishi bolalar musiqasi ijodi sohasida ham o`z aksini topmoqda. Yosh avlodni musiqali - estetik tarbiyasi ishlarining rivojiga «Biz O`zbekiston bolalarimiz», «Chegarasiz go`zallik» tanlovlari va yangi tashabbuslar sifatida «O`zbekiston, Vatanim – manim» qo`shiq tanlovi, yosh ijodkorlar, (shu jumladan yosh xonandalar) tanlovlarini ko`rsatish mumkin. Ayniqsa, 1997 yildan boshlab o`tkazilayotgan «O`zbekiston - Vatanim manim» qo`shiq tanlovida boy va qiziqarli tajribalar orttirilgan. Unda barcha xor

---

<sup>10</sup>Baxritdinova N. A. O`zbekiston bolalar xor madaniyati. Toshkent 2002

jamoalari qatnashib, eng zo`r ijodiy kuchlarni namoyish etmoqda. Jamoalarning badiiy dasturlari rang - barang, E. Shvarts, Sh. Yormatov, N. Norxujaev, A. Varelas, D. Omonullayeva va boshqa kompozitorlar asarlarini qamrab olgan

Yosh musiqachilar uchun yangi cholg`u asarlar yozilishi. O`zbekiston bastakorlari a`zolari ozod va obod Vatanimizning musiqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida faol ijod qilmoqdalar. Mustaqillikning o`tgan davrida kompozitorlar yakka ijrochi va ijrochi jamoalarining repertuarlarini yangi - yangi musiqiy asarlar bilan doimiy ravishda boyitib kelmoqdalar. Bolalar xor jamoalari, o`smir yoshlar va bolalar ijrosi va musiqa maktablari o`quvchilari uchun turli cholg`u asarlari yaratmoqdalar.

M. Otajonovning «Guldasta» fortepiano p`esalari turkumi. Iste`dodli kompozitor Muhammad Abdusharipovich Otajonov san`atkorlar oilasida 1959 yil 16 sentabrda Urganch shahrida tug`ildi. Uning otasi kompozitor Abdusharip Otajonov va onasi Bekajon Rahimova o`g`illari Muhammadjonni bolaligidan musiqaga bo`lgan qobiliyatini sezib, uning tarbiyasiga katta e`tibor berdilar. U boshlang`ich musiqa savodini otasidan o`rgandi. Otaniyozov nomidagi musiqa (hozirda «san`at») maktabida fortepiano bo`yicha o`qidi. Ettinchi sinfni bitirgach, 1973 yili M. Xarratov nomidagi Urganch musiqa bilim yurtida fortepiano mutaxassisligidan ta`lim ola boshladi. Uchinchi kursda o`qib yurgan paytida Respublika musiqa o`quv yurtlariaro pianinotchilar tanlovida qatnashib, 3 - darajali diplomga sazovor bo`ldi.

1976 - 1977 o`quv yilida M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov bo`limida bir yil o`qidi va 1977 - 1982 yillarda fortepiano fakul`tetining asosiy bosqichida N. B. Gienkoda saboq oldi. Yosh sozanda konservatoriyada o`qib yurgan paytlarda musiqa bastalashga ham qiziqdi. Shu sababli u 1982 yil konservatoriyaning kompozitorlik fakultetining ikkinchi kursiga qabul qilindi. Harbiy xizmatdan qaytgach, uzilib qolgan o`qishini davom ettirdi. 1989 yil Muhammadjon konservatoriyani ikkinchi marotaba bitirdi.

M. Otajonov 1985 va 1987 yillarda o`tkazilgan yosh kompozitorlar ko`rik - tanlovida ikkinchi darajali mukofotga sazovor bo`ldi. 1989 yilda esa diplom ishi

sifatida fortepiano va simfonik orkestr uchun uch qisimli kontsertini o`z ijrosida taqdim etgan.

M. Otajonov turli janrlarda milliy asosda musiqiy asarlar yaratib, musiqa jamoatchiligini xushnud qilib kelmoqda. Chang va xalq cholg`ulari orkestri uchun uch qisimli kontsert, fortepiano va simfonik orkestr uchun ikkinchi kontsert, xalq cholg`ulari orkestri uchun uch qisimli syuita, fortepiano dueti, fortepiano va simfonik orkestr uchun uchinchi kontsert, qonun va orkestr uchun uch qisimli kontsertlari shular jumlasidandir.

Jonajon Vatanimiz mustaqillikka erishgandan buyon M. Otajonovning ijodiy yo`nalishida ham burilish ro`y berdi. M. Otajonov bolalar uchun ko`plab xor qo`shiqlarini yaratdi. Shu jumladan, «Assalom», «Beozor musicha», «Chumchuq», «Onajon» va boshqalar.

Buxoro shahrida o`tkazilgan Respublika bolalar xor jamoalarining ko`rik - tanlovida, O`zbekiston xalq artisti, dirijor Sh. Yormatov rahbarligida 5000 ta bolalar qo`shma xori ijrosida «O`zbekistonim» (Qambar ota so`zi) va «Navro`zjon» (Z. Mo`minov so`zi) M. Otajonovning qo`shiqlari ikkinchi darajali sovringa sazovor bo`ldi.<sup>11</sup>

«Guldasta» fortepiano p`esalari turkumi. U o`z ichiga 21 ta p`esani oladi. Ularning har biri na faqat o`z nomiga ega bo`lib qolmasdan, balki ularda she`riy muqaddimalar ham mavjud bo`lib, u rus kompozitori P. I. Chaykovskiyning «Yil fasllari» turkumiga o`xshab ketadi. Lekin «Guldasta» turkumida faqat bitta shoir Qambar ota she`rlaridan foydalanilgan. Turkumning nomi ham juda aniq tanlangan bo`lib, undagi p`esalar guyoki gulzordan tanlangan har xil gullar kabi bir - biriga o`xshamaydigan kontrast p`esalardan tashkil topgan.

Turkum mazmuniga qarab uni bir nechta yo`nalishlarga ajratish mumkin. P`esalarning ancha qismi hayvonot dunyosiga bag`ishlangandir. «Etib olchi», «Xo`tikcha», «Uloqcha», «Musicha», «Urushqoq xo`rozlar», «Mard tuya», «Bedana», «Toychoq», kabi p`esalar shular jumlasidandir. Shuningdek musiqa janrlari bo`yicha yaratilgan p`esalarni ham ko`rsatish mumkin. «Etud», «So`zsiz

---

<sup>11</sup> Otajonov M «Guldasta» Toshkent.2001

qo`shiq», «Xorazm marshi», «Ertak», «Hazil - huzul» va boshqalar shu toifadagi asarlarga kiradi.

Muallif turkumida bir qator bolalar portretlarini ham yaratadi. «O`g`il bolalar», «O`quvchilar», «Ayvonda», «Qizcha raqsi» kabi p`esalar bilan bir qatorda tabiat manzarasi bilan bog`liq ikkita p`esa ham ushbu turkumdan joy olgan. Qolgan p`esalarni buyumlarni ifodalovchi asarlarga ajratish mumkin. «Soat», «Guldasta» kabilar.<sup>12</sup> Ana shunday timsollar rang – barangligini kompozitor har xil musiqa vositalari orqali ifodalaydi. Ulardagi eng asosiy tamoyil kontrastlik - qarama – qarshilikdir. U nafakat p`esalar o`rtasida, balki p`esalar ichida ham mavjuddir.

«Toychoq» p`esasi, bu nafaqat jonivorlar haqidagi so`ngi p`esa, balki butun turkumning xotimasidir. Undagi barcha musiqa ifoda vositalari chopayotgan toychoqni ko`rsatishga qaratilgandir. Ushbu personajni ifodalashning asosiy vositasi, parallel seksta va kvartalar ustivorlik qiluvchi fakturadir. Kompozitor ostinata ritmik formulasi orqali, barcha narsa, unga qiziqarli bo`lib tuyuluvchi va shuning uchun ham u yoqdan bu yoqqa chopayotgan toychoq hatti – harakatini ifodalashga harakat qiladi. Ko`rinib turganidek kompozitor, ushbu p`esalar orqali bolalar tevarak atrofini o`rab turgan jonivorlar obrazlarni tasvirlaydi.

Asosiy qahramonlari bolalar bo`lgan p`esalarga murojaat qilar ekanmiz, ulardan ikkitasiga to`xtalib o`tamiz. «O`g`il bolalar» p`esasi to`rtlik she`riy epigraf bilan boshlanadi.

Unda o`g`il bolalar kuchli jins vakillari sifatida ifoda qilinadi. Bu bolalar Botir, Mard va Odillardir. She`r mazmunidan shunday ma`no kelib chiqadiki, Tinchlik yosh avlod qo`lida bo`lib, ular doimo Vatan himoyasiga tayyor turishlari, aynan tinchlikni kuylashlari zarur. Asarning musiqiy tilida esa bir muncha boshqa ma`no mavjud bo`lib, unda «Urush – urush» o`yinini o`ynayotgan, shunchaki quvnoq bolalar ifodalanadi. P`esa juda kichkina - u bor yug`i o`n ikkita taktdan iboratdir. Lekin shunga qaramay unda ikkita obraz – kvarta intonatsiyalaridagi akomponent orqali o`yinchoq otlar tuyoqlari ovozi ifodalangan va ikkinchisi, vertikal garmonik ovozlar orqali ifodalangan, mustaqil ohangga ega bo`lmagan dushman obrazlaridir.

---

<sup>12</sup> Otajonov M «Guldasta» Toshkent.2001

P'esa davomida bu ikkita personaj bir- birini taqib qiladi. P'esani esa g'alabaga erishgan bolalar intonatsiyasi yakunlaydi.<sup>13</sup>

Ikkinchi p'esa «Ayvonda» deb nomlanib u bevosita bolalar mavzusi bilan bog'lik bo'lmasada, uni boshlab beruvchi she'riy epigraf aynan uning bolalar dunyosiga taaluqli ekanligini ko'rsatadi. She'rning mazmuniga ko'ra Gulzoda degan qizni supirib sidirilgan ozoda supachaga do'stlik haqida suxbatlashish uchun taklif qiladilar. P'esa musiqasi esa shitirloyotgan yaproqlar nafaqat salqinlik, balki yana ma'lum bir shoirona kayfiyatni yaratayotgan qishloq bog'i manzarasini chizadi. Ana shu manzarani tasvirlash uchun kompozitor etud texnikasidan foydalanadi. Hosil bo'layotgan beto'xtov harakat shabada esishini ifodalaydi. Kimningdir so'zlariga diqqat bilan quloq solayotgan Gulzoda obrazi ham musiqada tez - tez almashinayotgan lavhalar goh lamitoz rechitativ, goh quyiluvchan arpedjio, goh qahrli, og'ir akkordlar orqali ifodalaniladi.

Janriy xarakterdagi p'esalarga kelganda bu turkumni «Xorazm marshi» ochib beradi. Uni boshlab beruvchi she'riy epigraf tinchlik va vatan mavzusidadir.

Musiqah ohanglari ham bu kayfiyatni to'la – to'kis qo'llab - quvatlaydi. Bu esa tanlangan tonallik (D - dur), kuydagi kvarta ohanglari va sinkopalangan ritm ustivorligidan sezilib turadi. Birinchi qism ko'tarinki kayfiyatda, keyingi qism endi boshqacha lirik bo'yoqlarda davom qildiriladi. Bu esa uchinchi qismda boshqacha kayfiyat – tantanavorlikka qaytishga xalaqit bermaydi.<sup>14</sup>

Bu turkumda she'riy epigraf berilmagan kamyob p'esalardan biri – «Ertak»dir. Bu erda she'riy epigraf keltirilmaganing sababi, balki har bir yosh ijrochiga o'z ertagini yaratishga imkoniyat berish uchun shunday qilingandir. Lekin kompozitor dastlabki ohanglardan oq tinglovchilarni lirik kayfiyatga tayyorlaydi. Bu kuyda bevosita noktyurn belgilari sezilib turadi.

«Guldasta» turkumini tahlil qilishni yakunlar ekanmiz undagi barcha p'esalar milliy tusda ekanligini takidlash zarur, ular juda obrazi va bolalar tinglashlari, ijro qilishlarini nihoyat darajada hisobga olgan holda yaratilgandir. Professor O.

---

<sup>13</sup>Otajonov M «Guldasta» Toshkent.2001

<sup>14</sup> Otajonov M «Guldasta» 62 bet.Toshkent.2001.

Yusupovning «bunday to`planning juda o`z vaqtida yaratilganligi va u yosh pianinotchilar repertuarini o`zbek kompozitorlari asarlari bilan to`ldirish uchun juda kerak ekanligi» haqida aytgan so`zlariga batamom qo`shilamiz.

Shunday qilib M. Otajonovning «Guldasta» p'esalar to`plamini tahlil qilish orqali o`zbek kompozitorlik maktabining yosh vakili, talantli kompozitor ijodining bir qirrasini, ya'ni turkumiy janr bilan yaqindan tanishishga musharraf bo`ldik.

Kompozitor Nadim Norxo`jayev fortepiano uchun 3 ta pesa, 4 ta prelyudiya, 2 ta variatsiya, sonatina, «Luqmalar» nomli miniaturalar turkumi, so`zsiz qo`shiq, fortepiano uchun 2 ta sonatina, skripka va fortepiano uchun p'esalar yaratgan. Forteplano uchun yozgan 2 ta prelyudiya, so`zsiz qo`shiq va 8 ta miniaturalari 1977 yilda «Melodiya» firmasida plastinkaga yozildi.

«P'esa»ning notasi esa 1974 yili chop etildi.<sup>15</sup>

Hozirgi davrda respublikamizdagi ijodiy kuchlarning yuksalishi bolalar musiqasi ijodi sohasida ham o`z aksini topmoqda. Yosh avlodni musiqali - estetik tarbiyasi ishlarining rivojiga «Biz O`zbekiston bolalarimiz», «Chegarasiz go`zallik» tanlovlari va yangi tashabbuslar sifatida «O`zbekiston, Vatanim – manim» qo`shiq tanlovi, yosh ijodkorlar, (shu jumladan yosh xonandalar) tanlovlarini ko`rsatish mumkin. Ayniqsa, 1997 yildan boshlab o`tkazilayotgan «O`zbekiston - Vatanim manim» qo`shiq tanlovida boy va qiziqarli tajribalar orttirilgan. Unda barcha xor jamoalari qatnashib, eng zo`r ijodiy kuchlarni namoyish etmoqda. Jamoalarning badiiy dasturlari rang - barang, E. Shvarts, Sh. Yormatov, N. Norxujaev, A. Varelas, D. Omonullayeva va boshqa kompozitorlar asarlarini qamrab olgan

Vokal asarlar yaratilishi. Bolalar uchun ajoyib qo`shiqlar yaratgan va yaratib kelayotgan kompozitorlardan biri O`zbekiston xalq artisti, xor dirijori va murabbiy, bastakor Shermet Yormatovdir.

Kompozitor Sh. Yormatovning ijodida bolalar qo`shiq janri ustuvor turadi. U o`tgan yillar davomida zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda turli mavzularda o`zi rahbarlik qilayotgan ijro jamoalarga va yakka xonandalarga atab qo`shiqlar hamda

---

<sup>15</sup> Otajonov M. «Guldasta» Toshkent. 2001.

syuita, kantatar yaratdi. Misol sifatida ayrimlarini eslatib o`tamiz: jo`rsiz (akapella) xor qo`shiqlari, «Qor yog`ar» (B. Isroil so`zi), «Qari chumchuq chaqimchi» (A. Obidjon so`zi), «Yalpiz» (Yu. Shomansur so`zi), «Dorboz» (T. Bahromov so`zi), «Gullola» (T. Sodiqova so`zi), «Maysa» (R. Tolipov so`zi), «Salom, maktab» va «Ona tuproq» (P. Mo`min so`zlari), «Keldi navro`z» (A. Isoqov so`zi), «Ona tilim» (D. Sarimsoqov so`zi), «Islom bobo» (M. Rahmon so`zi), «Oy Vatanim» va «Zamonim, o zamonim» (Qambar Ota so`zlari), «Ko`ylak» (Mirmuhsin so`zi), «Qo`zichoq» (D. Abdurahmonov so`zi), «Sog`lom avlod qo`shig`i» (S. Barno so`zi) va fortepiano jo`rligidagi xor asarlari: «Dadamlarga o`xshasam», «Temir - tersak», «O`ynadik hech to`ymadik», «Ikki qo`ymang, o`qituvchim» va «O`n beshtamiz besh oldik» (P. Mo`min so`zlari), «Onajonim» (H. Muhammad so`zi), «Eng chiroyli oy» (T. Ayupanov so`zi), «Gul fasli», «Barmoqlarim» (M. Muhamedov so`zi), «Nurli avlod» (X. Rahimov so`zi), «Mehnat qo`shig`i» (M. Zayniddinova so`zi), «Yosh mexanizator qo`shig`i» (G`. Mahmud so`zi), «Umidjon polvon» (R. Shukurov so`zi), «Xo`rozim» va «Oymomajon rom bo`ldi» (Q. Muhammadiy so`zi): «Sumalak» (T. Bahromov so`zi), «Ayyomlaring muborak» va «Norin daryo» (T. Sodiqova so`zi), «Bahor» (3. Azimova so`zi), «Muallim» (Yu. Shomansur so`zi), «Toy bola» (Qambar Ota so`zi).<sup>16</sup>

Bulardan tashqari, kompozitor maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ham qo`shiqlar yaratdi. Uning qo`shiqlari turli nota to`plamlari va «Musiqqa» darsliklariga kiritilgan. Sh. Yormatov hammualliflikda umumta`lim maktablari uchun musiqqa darsliklarini yaratdi va nashrdan chiqardi, Sh. Yormatovning ijodiy sinchkovligi, izlanuvchanligi, kompozitorning musiqqa tarbiyasiga oid yangi shakllariga moyilligi, maktabda musiqali xor sinflarining tashkil qilishga imkon berdi.

Kompozitor Omonullayeva Dilorom Darvinovna turli yoshdagi bolalar uchun ko`p qo`shiqlar bastaladi. 1990 - 1995 yillari fortepiano uchun «Bolalar albomi», beshta kichik pesa: «Rechitativ va tokkata»; № 2 tokkatasini shular jumlasidandir; «Yomg`ir», «Bekinmashoq o`yin», «Karavay» kabi asarlari yosh pianinotchilar

---

<sup>16</sup> Jabborov A. O`zbekiston bastakor va musiqshunoslari. Toshkent. 2004

ikkinchi to`plamiga kiritilgan. 1985 - 1993 yillarda «Kichkintoylar uchun musiqa», bolalar bog`chalari uchun 20 qo`shiq va 30 raqs kuylari kiritilgan to`plam; 1992 yili «Topishmoq aytishuv» 6 ta qo`shiqdan iborat turkum, shoir P. Mo`min she`rlariga bog`cha bolalari uchun va «Topishmoq qo`shiqlar» 10 ta qo`shiqdan iborat turkum; 1994 yili lotin alifbesining har bir harfiga 30 ta «Alifbo qo`shiqlari» Po`lat Mo`min she`rlariga yozilgan birinchi sinf uchun qo`shiq to`plamlari kompozitor ijodiy g`aznasini boyitdi.<sup>17</sup>

Kompozitor Nadim Norxo`jayev zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda, turli mavzularda, 100 dan ortiq estrada, bog`cha bolalari va maktab o`quvchilari uchun qo`shiqlar yaratdi. Yosh bastakorning bolalar uchun 1975 yilda yozgan «Hakkalar» ilk estrada qo`shig`i endigina tashkil topgan «Paxtaoy» nomli bolalar estrada - vokal cholg`u ansambli ijrosida mashhur bo`lib ketdi. Bundan ilhomlangan kompozitor bolalar va o`spirinlar uchun ko`plab qo`shiqlar yaratdi. Jumladan, «Yaxshi bola», «Oltin paxtam, oppog`im», «Salom bergan bolalar», «Yulduzlarmiz, yulduzlar», «Xoh o`qishda, xoh ishda», «Gullar manim kulganim», «Bog`cha opa, bo`lmang xafa», «Kitob qo`limda», «Bobo xo`roz», «Xumo qushi», «Varragim», «Olmalar» (P. Mo`min so`zlari); «Gijinglagan toychoq`im», «Sayyoraxon», «Kichik chegarachi» (M. Abdushukurova so`zlari) shular jumlasidandir. O`zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xori uchun ham ko`pgina qo`shiq yaratib berdi.

N. Norxo`jayevning «Ona bolam deydi, bola onam deydi» operasi. Zamonaviy kompozitorlar ijodida yangi, turli uslublarni mujassam etgan asarlari paydo bo`lmoqda. Oxirgi paytlarda bolalar uchun estrada yunalishidagi va boshqa musiqa uslubida yaratgan asarlarini ijod etish ham yuz bermoqda. Bunga N. Norxujaevning «Burgut va toychoq» musiqali dramasi, «Ona bolam deydi, bola onam deydi» operalari yorqin misol bo`la oladi.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Nadim Norxo`jayev bu murakkab va mas`uliyatli sohaga musiqa san`atida boy tajribaga va katta kuchga ega bo`lganidan keyingina qo`l urdi.

---

<sup>17</sup> Jabborov A. O`zbekiston bastakor va musiqshunoslari. Toshkent. 2004



To`g`ri, bir qaraganda, bolalar uchun kuy va qo`shiqlar yozib yurgan bastakorning bolalar spektakllari uchun musiqalar bastalashi tabiiydek ko`rinadi. Lekin bastakorning mazkur janrdagi izlanishlari bilan yaqindan tanishgan kishi bu jarayonni osonlik bilan kechmaganiga guvoh bo`ladi. Avvalo, bolalar uchun musiqaviy asarlari yaratishga bel bog`lagan bastakor bolalar adabiyoti bilan yaqindan tanish bo`lishi, kichkintoylar ruhiyatini chuqur bilishi, bolalarga xos va mos ohanglarni topa bilishi kerak.

Nadim Norxo`jayevda esa xuddi shu narsa shakllanib bo`lgani uchun bo`lsa kerak, bastakorning «Tuyaqush – boyaqish», «Ona bolam deydi, bola onam deydi», «Jo`jalarim», «Ajoyib don», «Burgutcha va toychoq» singari musiqali spektakllari Toshkent, Andijon, Farg`ona, Namangan teatrlarida sahnalashtirilishi bilanoq tomoshabinlar diqqatini o`ziga tortdi, katta qiziqish uyg`otdi. Uzoqqa bormaylik, bastakorning «Burgutcha va toychoq» spektakliga razm solgan kishi unda ijodkorning ilgari ko`rinmagan, balki sezilmagan yangi qirralarini ilg`agandek bo`ladi. Ya`ni, u asarning ich - ichiga kira oladi.

Ma`lumki, har bir ijodkorning aql - zakovati, idroki, tabiiy sezgirligi, qalbidan o`tkazgan tug`yoni, zavqli va hayajonli lahzalari yaratayotgan asarlarida o`z ifodasini topadi. Musavvirlarning tasavvurlari, masalan, rango - rang bo`yog`u - tuslarga bo`yaladi, haykaltaroshlarning timsoliy g`oyalari gilv toshlarda mujassam topadi, me`morlarning noyob tarhlariga betakror naqshlaru - bezaklar husn beradi, bastakorlarning ruhiy holatlari esa dilrabo ohangu - kuylarda sadolanadi. Shunday ekan, vujudga kelgan har bir san`at namunasi faqatgina xom ashyoviy mahsulot bo`lib qolmay, balki, uni yaratishga qo`l urgan muallif ruhiyati ma`naviy in`ikosidir.

1980 yillardan e`tiboran Nadim Norxo`jayevning serqirra ijodida yangi burilish kuzatildi: qo`shiq janrida orttirgan katta amaliy tajribasiga suyangan holda, kichkintoylar uchun musiqaviy - sahna asarlarini yaratishga qo`l urdi. Gap shundaki, aynan shu paytlarda muallifga bir qator viloyat teatrlaridan bolalar repertuarini boyitish maqsadida buyurtmalar kelaboshladi. Ko`p vaqt o`tmay Toshkent, Andijon, Farg`ona, Namangan teatrlarida Norxo`jayevning qalamiga mansub «Burgutcha va toychoq», «Ona bolam deydi, bola onam deydi», «Tuyaqush – boyaqish», «Ajoyib

don», «Jo`jalarim» kabi musiqali spektakllar sahna yuzini ko`rib, yosh tomoshabinlarni xushnud qildi.<sup>18</sup>

Nadim Norxo`jayevning musiqaviy - sahna sohasidagi ijodi haqida fikr yuritishdan oldin bu borada u o`z oldiga sohaga doir qo`yayotgan talablarni o`rganib chiqishni zarur deb bildi. Ulardan biri - adabiy mavzuni tanlash masalasi alohida e`tiborga loyiq. Bu borada bastakor bolalar ongiga mos tushadigan, ularning dunyoqarashlarini badiiy shakllantiruvchi hamda aql - idrokini milliy ruh bilan sug`ora oladigan va barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi shoir Po`lat Mo`minning ijodi mazkur talablarga javob bera olganligi N. Norxo`jayevning hamkorligiga sabab bo`ldi. O`zining musiqaviy sahna asarlari uchun Nadim Norxo`jayev Po`lat Mo`minning «Ona bolam deydi, bola onam deydi» ertagi asosida sahna asari yaratadi.<sup>19</sup>

Nadim Norxo`jayev doimo izlanishlar, rejalar va yangi asarlar yaratish ishtiyoqi bilan yashaydi. Shak - shubhasiz, Mustaqillik sharofati ila Nadim Norxo`jayevning ijodiy yutukdari tobora yuksalib, bolalarga bag`ishlab yaratilayotgan qator yangi musiqiy asarlari ulkan maqsadlar yo`lida xizmat qilaveradi.

### **Xulosa**

Bolalar musiqasi barcha davrlar kompozitorlari ijodida muhim ahamiyatga ega bo`lib keldi. U inson hayotidagi eng go`zal davr - bolalik bilan bog`liq tassurot, xotiralarni o`zida aks ettiradi.

Xozirgi davrda bolalar uchun na faqat qo`shiqlar, xorlar yoki cholg`u kuylarigina mavjud bo`lib qolmasdan, balki bolalar operalari, balet, operetta, kantatalar, yana shuningdek bolalar auditoriyasi uchun maxsus yaratilgan simfonik musiqalar, bolalar dramalari, p`esalari va kinofilmlarga yozilgan musiqalar ham bor.

O`zbekistonda professional bolalar musiqasi asosan o`tgan asrning 20 - yillardan boshlab rivojlana bordi. Hozirgi davrda respublikamizdagi ijodiy

---

<sup>18</sup> «San`at» jurnali.2012 yil.Toshkent

<sup>19</sup> «San`at» jurnali.2012 yil.Toshkent

kuchlarning yuksalishi bolalar musiqa ijodi sohasida ham o`z aksini topmoqda. E. Shvarts, Sh. Yormatov. N. Norxo`jayev, A. Varelas, D. Omonullayeva va boshqa kompozitorlar bolalar musiqasi sohasida samarali ijod qilmoqdalar.

Bolalar uchun yozadigan kompozitorlar ijodi bevosita maxsus va umumiy musiqa ta`limi bilan bog`liqdir.

2011 - 2012 o`quv yilidan boshlab oliy ta`lim dargohlari musiqa yo`nalishi o`quv dasturining ixtisoslik bo`limiga «Bolalar musiqa adabiyoti» fani kiritildi. Mazkur fan musiqa ta`limi yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, unda bo`lg`usi musiqa madaniyati o`qituvchilari egallashi zarur bo`lgan bilim, malaka va ko`nikmalar minimumi belgilab berilgan.

Fanning o`quv dasturi ta`lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar, zamonaviy o`qituvchiga qo`yilayotgan talablar, boy ma`naviy, madaniy va musiqiy merosimizga yangicha yondashuvlarni hisobga olib tuzilgan. Bu esa bolalar musiqasi sohasiga bo`lgan katta e`tibordan dalolatdir.

O`zbek kompozitorlari bolalar musiqasi sohasining turli janrlarida ijod qilib muvaffaqiyatga erishmoqdalar. Bolalar uchun yangi - yangi musiqa asarlari yaratilmoqda. Bu asarlar musiqa darsliklariga kiritilgan bo`lib, ular bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy vosita bo`lib xizmat qilmoqda.

Kompozitorlarining bolalar qo`shiq va xor musiqasi sohasidagi faol ijodi bolalar musiqa san`ati rivojida katta turtki bo`ldi. Xor asarlari, bolalar uchun yaratilgan qo`shiqlar, cholg`u musiqasi, spektakllar rivojidadagi katta o`zgarishlarga qaramay hali kompozitorlar oldida katta vazifalar turibdi.

Bolalar musiqasi sohasida kiritilgan yutuqlar, kelgusida bu borada yanada yuqori bosqichlarga ko`tarilish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`k. Toshkent: Sharq, 1998. 31 – bet..
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekistonda teatr va musiqa san`atini yanada rivojlantirishni qo`llab – Quvvatlash to`g`risida» farmoni. O`zbekiston ovozi. 1995, 21 oktabr.
3. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi 6 maxsus son. Musiqa. «Sharq» matbaa kontserni M., 1999 .
4. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi maxsus son. Musiqa. «Sharq» matbaa kontserni M., 1999 .
5. Abzalova M., Galieva D. O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. 2 sinf. G`. G`ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent 2008
6. Baxritdinova N. A. O`zbekiston bolalar xor madaniyati. Toshkent 2002
7. Begmatov S. va b. 6 sinf «Musiqa» darslik. T., 2008.
8. «Bolalar musiqa adabiyoti» fanining o`quv dasturi. Tuzuvchilar: Karimova D. A., Shainskaya E. N. Toshkent – 2009
9. Ibrohimov O. 4, 7 sinf «Musiqa» darsliklari T., 2007 – 2008
10. Nurmatov H. va boshqalar. 1 - 3 sinf «Musiqa» darsliklari. T., 2008
11. Sharipova. G. Musiqa va uni o`qitish metodikasi. O`quv qo`llanmasi. T., Turon-Iqbol. 2006 y.

### **Internet manzillar**

<http://www.ZiyoNET>

<http://www.Google.ru>.

<http://Yandex.ru>